

YEVROPANI TITRATGAN HUKMDOR – NURIDDIN MAHMUD ZANKIY

Toshpo'latov Akbarshoh Xurshid o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Abstract: *Ushbu maqola butun musulmon olamiga ma'lum va mashhur Nuriddin Mahmud Zankiy haqida bo'ladi. Nuriddin Mahmudning salibchilarga qarshi kurashi, adolatli davlat boshqaruvi va faoliyati haqida so'z boradi.*

Key words: *Nuriddin Mahmud Zankiy, Imomiddin Zankiy, Sayfiddin G'oz, Shirkuh, Salohiddin Ayyubiy, Mosul, Masjidul – Aqso.*

To'liq ismi Al-Malik al-Odil Nuriddin Abu al-Qosim Mahmud ibn Imomiddin Zankiy Hijriy 511-yil 17-shavvolda Halabda tug'ildi. U otasi qo'lida yaxshi ta'lim olib ulg'aydi. Qur'on, Tafsir, Fiqh, Tarix, Fors va Rum tillarini o'rgandi va yaxshi harbiy bo'lib tarbiyalandi. Jang san'atini o'z davrining taniqli kishilari bo'lmish Asadiddin Shirkuh, Ibn al-Dayiy kabi amirlardan o'rgandi. Bundan tashbari Ot minish, Kamondan o'q uzish va Chavgan (Pologa o'xshash o'yin, O'rta Osiyo Turkiy qabilalaridan kelib chiqqan)da ham mahoratli edi[1]. Yosh bo'lishiga qaramay tez orada jang maydoniga chiqdi. 1144-yil Nuriddin qo'mondonligi ostidagi qo'shin Salibchilardan Edessa shahrini qaytib oldi. Shunday qilib Nuriddin uzoqni ko'ra biladigan professional jangchi va shu bilan birga din ilmini chuqur egalladi. 1146 yil Imomiddin Zankiy vafotidan etdi. Akasi Sayfiddin G'oz I (1146-1149) Mosulga Otabegi bo'ldi[2]. Nuriddin esa Halabda qolib, musulmonlardan tortib olingan Yaqin sharqqa o'z e'tiborini qaratdi. Shu vaqtda Imomiddin Zankiyning o'limidan foydalanib qolmoqchi bo'lgan sobiq Edessa grafi Xosselin II shaharda yashovchi armanlar bilan muzokaralar olib borib, kelishuvga erishadi. Va ular yordamida Edessada(1146 Oktabr) hokimyatni tiklashga urindi. Salibchilarning yurishini eshitgan Nuriddin 3-noyabrda shaharga yetib kelib ularga qarshi chiqdi va shu tariqa Edessa hokimiyatini qayta egallamoqchi bo'lgan salibchilar mag'lub etildi.[2] Uning tez va qat'iy aralashuvi tufayli dovrug'i salibchilar orasida keng tarqala boshladi. Tez oraqa mintaqada salibchilarning eng xavfi dushmaniga aylandi. Nuriddin eng katta orzusi salibchilar qo'lida bo'lgan Quddusni ulardan tortib olish edi. Va bu maqsadga u yakka yolg'iz erisha olmasligi ayon edi. Shu sababli u Suriyada ittifoq tuzishga harakatni boshladi. Bu ittifoqni tuzishga eng katta to'siq Damashqdagi Buridlar sulolasi edi. Chunki ular mudofaa uchun salibchilar bilan sulh tuzib, ularning ittifoqchisiga aylangani edi.

Edessadagi salibchilarning yengilishi Yevropani larzaga solib ikkinchi salib yurishlarini boshlashga sababchi bo'ladi. Xosselin papa Yevgeniy III, Fransiya qiroli Lyudovik VII va ba'zi ritsarlarga xat yozib ularni yangi salib yurishlariga yo'naltiradi. Shundan keyin Ikkinchi salib yurishlariga to'plangan qo'shinlar 1148 yil Bahorida Falastindagi mahalliy salibchilar bilan qo'shib Damashqni qamal qiladi. Damashq

ma'murlari Sayfiddin G'oziyda yordam so'rab borishadi. Nuriddin tezroq harakat qilib, Yagrada ularni qattiq mag'lubiyatga uchratadi va katta o'lja, asirlarni Sayfiddin G'ozi, Abbosiylar xalifasi Al Muktafi va Iroqdagi Saljuqiy sulton Ma'sud I o'rtasida taqsimladi. Mosul Otabegi Sayfiddin G'oziy I vafot etgach(544/1149), uning o'rniga ukasi Qutbiddin Movdud keldi. Bu orada Sinjarni egallagan Nuriddin Mahmud va Mavdud o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Vazir Jaloliddin al-Isfahoniyni say harakatlari oxirida Sinjar Qutbiddin Movdudga, Hums va Rahbe esa Nuriddin Muhmudga qoldirilgach tinchlikka erishildi. Bu shartnoma bilan Sinjar xazinasi Nuriddin Mahmud qo'liga o'tadi. Nuriddin Mahmud o'sha yili Antakiya va uning atroflarida keng ko'lamli yurishlar olib bordi. Bu orada ko'plab salibchilar o'ldirildi va asir olindi. U yerdan qaytishda Hama yaqinidagi Efamiye qal'asi jangsiz Nuriddin qo'liga o'tadi. Yaqin Sharqdagi salibchilar hukmdori Xosselin II qo'lga olinib(1150 yil may), to o'lguniga qadar Halab qal'asida saqlanadi. U egalik qilgan Antep, Tel Basir, Azaz, Tel Xolid, Ravendan, Burchur-Rasas, Bare Hisar, Kafersud, Kaferlasa, Duluk va Marash kabi shahar va qal'alari Nuriddin Muhammad, Onado'li saljuqiylar Sultoni Masud I tomonidan egallanadi. Nuriddin hijriy 548-yil Safar oyida(1153 yil may) salibchilar tomonidan qamal qilingan Askalonni qutqarish uchun Banyasga keldi, ammo urush hech qanday natija bermagan. Sakkiz oylik qarshilikdan so'ng Askalon baribir salibchilar qo'liga o'tadi. Va bu g'alabadan keyin salibchilar Damashqqa ko'z tika boshladi[3].

Damashq hukmdori Abaq(1140-1154) Quddus qiroli Bolduin III ga har yili o'lpon to'lashga rozi bo'ldi, franklarga Damashq yerlari bo'ylari bo'ylab erkin harakatlanishlariga imkon beradi. Shundan so'ng Nuriddin Damshqqa Shimoldan bug'doy yetkazib berishga to'sqinlik qilada va tez orada oziq-ovqat tanqisligi yuzaga keladi. Buning natijasida Abaqga noroziliklar kuchayib ketadi. Nuriddinning sa'y harakatlari natijasida 1154-yilda Damashq hokimiyati egallandi. Endi barcha salibchilar davlatning sharqiy qismiga surib chiqarildi. Nuriddin Mahmud Suriyaning yagona va islom himoyachisi sifatida sahnaga chiqdi. Shundan so'ng u Quddus va Damashq o'rtasida ilgari tuzilgan o't ochishni to'xtatish to'grisida kelishuvni maqulladi va muddatini uzaytiradi.

Salibchilardan ustun bo'lish va Misrga yo'l ochish uchun Damashqni egallashni zarur deb bilgan Nuriddin Shomni egalladi(549/1154). Keyinchalik Onado'li saljuqiy hukmdori Qilicharslonning Danishmendlar bilan kurashidan foydalanib, Antep va Ra'bonni hamda o'z hukmronligi ostidagi ba'zi shahar va qal'alarni egalladi(Ramazon 550 / noyabr 1155). Qilicharslon otasi belgilagan chegarani buzganligi va qo'lga kiritgan yerlarni qaytarib berishni so'rab xat yozadi. Lekin bu hech qanday natija bermadi. 552 (1157) yilda Quddus podshohi va Antakiya prinkepsi birlashib Nuriddin yerlariga hujum qilgach, bosib olgan yerlarini Qilicharslonga qaytarib berib, o'zi Halabga chekindi. Va qisqa vaqt ichida yana bu hududlarni qaytarib oladi. Biroz vaqt o'tgach, Nuriddin Halabda og'ir kasal bo'lib qolganida, ukasi Nusretiddin vaziyatdan foydalanib,

hukumatni o'z qo'liga olmoqchi bo'ladi. Ammo Salohiddin Ayyubiyning amakisi Esudiddin Shirkuh al-Mansurning sa'y-harakatlari tufayli uning urinishlari natija bermadi. Nuriddinning betobligidan foydalanib salibchilar Balbek va Shayzerga hujum qildi, ammo hech natija bermadi. Nuriddin tuzalgach, Nusretiddindan Harranni olib uni jazoladi(554/1159). Keyin salibchilar qo'lida bo'lgan Harim qal'asini qamal qildi, ammo hech qanday natijaga erisha olmadi. 558(1163) yilda Tripoli viloyatiga yurish qilishga chiqadi. Hisnulekrad oldida qarorgoh qurildi. Bu orada Quddus qiroli Almarik I (1164-1172) Misrga xavf sola boshladi. Qirol Almarik 1163 yil sentabr oyida Misrga bostirib kirdi va Pelusiy shahrini qamal qildi. Fotimiylarning sobiq vaziri Shavar yordam so'rab Nuriddin huzuriga boradi(558/1163). Agar yana Misr vaziri etib tayinlansa, yurtiga ketadigan askarlarning barcha xarajatlarni qoplashga, Misr daromadining 1/3 qismini Nuriddinga yuborishga va'da beradi. Nuriddin Shirkuh boshchiligidagi qo'shinini Misrga yubordi. Biroq Nuriddinning hukmronlikni to'liq qo'lga olishidan qo'rqqan Shavar salibchilardan ham yordam so'raydi. Buni eshitgan Nuriddin 543(1148-49) yildan beri Banyasni bosib olgan salibchilarni oldini olish maqsadida Harimga yurish qilib, qal'ani egalladi(Ramazon 559/1164 yil Avgust). Bir oz vaqt o'tgach Shirkuh Iskandariyani egallab, jiyani Salohiddinni o'sha yerga vakil qilib qoldirib, o'zi Said viloyatiga ko'chib o'tadi. Biroq tez orada Fotimiylar va Salibchilar birlashib Iskandariyaga yurish qiladi. Oqibatda Shirkuh ular bilan sulh tuzib Suriyaga qaytadi. Salibchilar Nuriddinning Misrga qo'shin olib kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun Fotimiylar bilan yangi sulh tuzdilar(562/1167) Shu asnoda Nuriddinning Misrga yurishi amalga oshmay qoladi. Nuriddin Mahmud (564/1169) Kabir qal'asi(Frot daryosining chap qirg'og'ida Suriya chegarasida joylashgan)ni egalladi. Misrni bosib olish uchun harakatga tushib, Bilbisni egallagan salibchilar Qohiraga kelib qarorgohlarini tashkil qilganida Fotimiylar xalifasi Adid-Lidinillah va Shavar Nuriddinga maktub yo'llab, shoshilinch yordam so'radilar. Boshqa tomondan Shavar salibchilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib, ular bilan kelishishga harakat qildi. Salibchilar bilan muzokaralar natijasida 1 million dinor, oldindan 100 ming dinor evaziga chekinishga rozi bo'ldilar va Misrni Nuriddin egallab olishidan qo'rqib, 100 ming dinor kelishini kutib yaqinroqga chekinishdi. Biroq vazir Shavar Misr xalqidan atiga 5000 dinor yig'ishga muvaffaq bo'ladi. Bu orada Nuriddin 7000 kishilik otliq qo'shinni Shirkuh boshchiligida Misrga uchinchi marta jo'natadi. Bundan habar topgan salibchilar Misrdan quruq qo'l bilan qaytishga majbur bo'ladi. Qohiraga kirib kelgan Shirkuh boshqaruvni o'z qo'liga oladi(564/8-yanvar 1169). Xalifa Adid-Lidinillah Shaverni qatl etib, Shirkuhni vazir etib tayinlaydi. Ammo oradan ikki oy o'tib Shirkuh vafot etadi va uning o'rniga jiyani Salohiddin Ayyubiy tayinlanadi[4]

Misrni Nuriddin qo'liga o'tib ketishidan qo'rqqan salibchilar Yevropa yordami bilan 565 yil Safar-Rabiulavval oylarida (1169 noyabr – dekabr) ellik kun davomida Dumyat yoki Damietta(Nil deltasida joylashgan port shahar)ni qamal qiladi. Nuriddin

qo'shinini Misrga yuborishda davom etshi, salibchilarni qamalni to'xtatib, Suriya hududiga o'tishga majbur qiladi.

Mosul Otabegi Qutbiddin Movdud vafotidan keyin, Nuriddin jiyani va kuyovi bo'lmish Imoduddin Zengi II dan yorami bilan Rahbe, Habur va Nusaybin hududlarini qo'lga kiritdi, keyinroq Mosulni o'z tasarrufiga oldi(566/1170). 567(1171) yili Nuriddin o'zining bosh qo'mondoni va eng ishonchli insoni bo'lmish Salohiddin Ayyubiydan Misrga Abbosiylar xalifaligi nomidan xutba o'qib berishini so'raydi. Salohiddin mamlakatda tartibsizlik boshlanib ketishini vaj qilib, uni kechiktirishini so'raydi. Lekin Nuriddinning bu ishda qat'iyli tufayli Fotimiylar nomiga o'qilgan xutba tugatilib, Abbosiylar nomiga xutba o'qitiladi(7 Muharram 567/10 sentyabr 1171). Oradan bir necha kun o'tgach, Adid-Lidinillah vafot etgach, Fotimiylar sulolasi tugatilib. Butun Misr Nuriddin Mahmud qo'l ostiga o'tadi. Fotimiylar davlati qulagach, Abbosiylar xalifsi Nuriddinni qutlab, hududni boshqarish huquqini beruvchi yorliq jo'natadi. Shunday qilib Shimoliy Iroq, Janubi-Sharqiy Onado'li, Butun Suriya, Misr, Tripoligacha, Shimoliy Afrika, Sudanning Shimoliy qismi, Yaman va Hijoz Nuriddin Mahmud hukmronligi ostida edi. 568 yil(1173)da Nuriddin Armaniston qiroli Leonni o'g'li Mlehni o'z hizmatiga olidi va uni chegara bo'ylab o'z dindoshlariga qarshi ishlatdi. Nuriddinning qo'llab-quvvatlashi ortidan Vizantiya mag'lubiyatga uchradi. Shu tariga Mleh Adana, Tarsus, Misisni qo'lga kiritdi va u yerdan topilga o'ljalur Nuriddinga nasib etdi. Bu voqealardan so'ng Nuriddinning Saljuqiy hukmdor Qilicharslon bilan orasi yomonlashadi. Biroz vaqtdan so'ng Danishmend amirlari, Shahinshoh, Mardin va Xarput amirlari, Arman amirlarining qo'shinlafri bilrlashib, Qilicharslonga qarshi Sivasda to'planadi. Nuriddinning tinch yo'l bilan masalani hal qilish uchun qilgan urinishlari foyda bermadi. Qilicharslon Nuriddinni Kayseri(hozirgi Turkiya hududi) yaqinida o'z huzuriga chaqiradi. Bu ikki musulmon hukmdor o'rtasidagi kelishmovchiliklar salibchilar uchun qo'l kelardi. Shuning uchun u yerdagi din ulamolari va olimlarning aralashuvi bilan bu kelishmovchiliklarga chek qo'yiladi(Zulqada 568/iyun-iyul 1173). Kelishuvga ko'ra Nuriddin o'zi bosib olgan yerlardan chekinadi va Qilicharslon esa Zununni Sivas hukmdori sifatida tan oladi. Ayni shu davrda Abbosiylar xalifasi Kamoliddin Shaxrezuriy Nuriddinga elchi yuborib, uni Mosul, Jazira, Erbil, Ahlat(hozirgi Turkiya hududi), Suriya, Misr, Koniya sultoni ekanligini e'lon qiladi. Ammo Nuriddin Misrga ketishga tayyorlanayotganda Damashq qal'asida (569 yil 11 Shavvolda / 15 may 1174 yil) vafot etdi. Avval shu yerdagi ichki qasrdagi bir xonaga dafn etildi, keyinchalik Havvosin deb nomlangan bozorning kiraverishida Hanafiylar uchun o'zi qurdirgan An-Nuriyatul-Kubro nomli madrasaning kiraverishiga dafn etildi. Uning o'rniga 11 yoshli o'g'li Al Malikus - Solih keldi. [5].

Sulton dunyoviy narsalarga, mol-dunoyoga qiziqishi bo'lmagan. Ibn al-Kathirning yozishicha "u o'sha davrning eng kambag'al kishisidan ham kam harajat qilar edi, olmoqchi bo'lgan rizqini o'zidan keying soyaga o'xshatar edi." deya yozadi tarixchi. Uning haqiqiy ismi Nuriddin bo'lsada, o'ziga Mahmud ya'ni "Iymon nuri" nomini oladi.

Agarda urushda G'alaba qozonib unga peshvoz chiqishsa: "Ey Robbim, oldindan belgilab qo'ygan Mahmud emas, Islom g'alaba qildi. Mahmud kim bo'libdi, g'alaba qozonadigan?" deya javob berardi. U umri davomida jangda "shahid" bo'lishni xohlardi. Shuning uchun ham uni "shahid" deb ham atashgan. U bu orzusini amalga oshirish uchun har jangda eng oldingi qatorda jang olib borardi. Bir kuni Faqih Qutbiddin Neysoburiy: "Ey ustoz, o'zingizni azobga qo'ymang, agar o'lsangiz Musulmonlar ko'p aziyat chekadi" deganda Nuriddin: "Nuriddin Mahmud kim? Mendan oldin Islomni va Musulmonlarni kim himoya qilgan edi. Albatta, Allohdan boshqa iloh yo'qdir" deya javob bergan. Amirlari orasida Najmiddin Ayyubdan boshqa hech kim uning oldida o'tirishga jur'at eta olmasdi. Holbuki, olim va ruhoniylar, faqihlar, ilmi insonlar davrasida bo'lgan Nuriddin Mahmud ularni oldida o'tirishga jur'at eta olmasdi. Chunki, u ilmi insonlarni cheksiz hurmat qilar edi.

Ot minishda o'z davrining ustasi edi. Aynigsa Chavgan o'yinida mahoratli edi. Bu o'yinni otlar tayyorgarligi uchun katta foyda deb bilgani uchun, muntazam shug'ullanib kelganligi haqida Ibn al-Asir rivoyat qiladi.

Manbalarga qaraganda vaqf uchun ajratgan yerlaridan, yiliga 30000 dinor daromad tushgan(masjid, madrasa, honaqoh, darveshxona va boshq). Undan tashqari 200000 dinorni vaqflarga yordam va sadaqa sifatida tarqatgani aytiladi. Uning davrida Damashq, Halab, Mosul, Homs, Xama kabi shaharlar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlandi.

Nuriddin Mahmudning uchta siyosiy maqsadi bor edi. Birinchisi, Suriya va yaqin sharqqa suqulib kirgan salibchilar davlatini yo'q qilish, Ikkinchisi, Misrdagi Fotimiylar davlatiga chek qo'yish, Uchinchisi, Abbosiylar xalifasi timsolida Islom olamini birlashtirish. Nuriddin Mahmud Fotimiylar davlatiga chek qo'ydi, salibchilar davlatini to'liq bartaraf eta olmasada, Quddusni ozod etish uchun zamin yaratadi. U Quddusni bir kun kelib zabt etishiga shunchalar ishonardiki, shu maqsadda Halabda Masjidul-Aqsoga qo'yish uchun yog'och minbar yasatadi. Afsuski, Quddusni fath etish unga nasib etmadi. Quddusni Nuriddindan ta'lim olgan Salohiddin Ayyubiy fath etdi va o'sha minbarni uning nomidan Masjidul-Aqsoga qo'ydi. O'sha minbar to 1969-yil yahudiylar tomonidan yondirib yuborilgunga qadar saqlanib qoldi.

"Men podishohlar tarixini o'qidim, to'rt Xulafoi Roshid va Umar ibn Abdulazizdan keyin eng adolatli va ulug' podshoh deb Nuriddin Mahmud Zankiyni topdim."

Ibn Asir

Xulosa o'rnida shu aytish lozimki, Nuriddin Mahmud Islom himoyachisi sifatida siyosiy maydonga chiqdi. U nafaqat jang qildi balki, madaniyat va san'at, xalq farovonligi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda o'zgarishlarga katta e'tibor berdi. Uning davrida Damashq ilm-fan markaziga aylandi. O'zining borini qiynalgan insonlarga sarfladi. Nuriddin Mahmud adolatli va kamtar hundor sifatida tarixda qoldi.

REFERENCES:

1. Ibn Kathir, translated by M. Keskin, el- Bidâye ve'n-Nihâye. Büyük İslâm Tarihi, XII, İstanbul 2000, p. 493. Cf. B. Kök, Nureddin Mahmûd b. Zengî ve İslâm Kurumları Tarihindeki Yeri, İstanbul 1992, p. 25 ff.
2. Ibn al-Athir (translated by A. Özaydın, İslâm Tarihi, İbn'ül Esir el Kâmil Fi't-Tarih Tercümesi, XI, İstanbul 1987, p. 113).
3. Kök B. NÛREDDİN ZENGÎ, Mahmud (typ.) İslam Ansiklopedisi. — 2007. — C. 33. — S. 259-262.
4. William of Tyre, II, p. 350-359; Ibn al-Athir, XI, p. 272-278; Ibn Shaddad, p. 51-55; Abu Shama, p. 111 ff.; Abu'l-Faraj, II, p. 407 f.; Michael the Syrian, p. 207 f. For the struggle between Nur al-Din Mahmud and Amalric to rule over Egypt also cf. G. Schlumberger, Campagnes du Roi Amaury de Jérusalem en Égypte, Paris 1906; Lane-Poole, p. 85-91; Runciman, II, p. 311-314; H. E. Mayer, The Crusades, Oxford 1988 , p. 117-122; Richard, p. 183-188; Elisséeff, p. 602-613;
5. N. Elisséeff, Nūr ad-Dīn, Damas 1967, I-III.